№ 1/2025

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2025 mart

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda № 045013 raqam bilan ro‘yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo‘yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri, “Do‘stlik” ko‘chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas’ul muharrir:
B.A. Sirojidinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
TAHRIR KENGASHI
S.Z. Zaynobiddinov- O‘zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Yu. Isayev- kimyo fanlari doktori (DSc), professor
Sh.X. Yo‘lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
R. Aliyev- texnika fanlari doktori, professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A.Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
D.M. Isroilova - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K.Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
F.F. Usmanov- filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Q.Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O‘.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sh.M.Asqarov – tarix fanlari nomzodi, dotsent
B.M. Do‘monov- pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
T.Parpiyev- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S.Karimov – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J.Abduraxmonova - biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B.Qoraboev- filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
N.T. Mo‘ydinov- kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Sh.Alimova - siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M.Rejapova- biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
L.S.Yunusov - biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Rasulov B.M., Hasanov Sh.A., Bazorov Q. Tarixiy haqiqatlar tilga kirganda yoxud Bobur Mirzo tug'ilgan joy – "Zodu-budi" xususida **4**
Qodirov V.A., Ergasheva U.K. Ekologik tarbiya: o'yinlar va milliy qadriyatlar uyg'unligi . **10**
Usmanova U.A. Magistratura talabalari ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga sun'iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish **16**
Umarova Y.T. Kognitiv tilshunoslik tamoyillari asosida o'qitish usullari **23**
Janaberegnova A.J. Talabalar mustaqil ishini tashkil etish hamda takomillashtirishda mediaresurslardan foydalanishning afzalliklari **27**
Botirova Sh.O. Plener rasmining xususiyatlari: plenerga qanday tayyorgarlik ko'rish kerak **33**
Bekmuratova Sh.N. Zamonaviy pedagogik texnalogiyalar orqali tasviriy san'at o'qituvchisini kasbiy maxoratini rivojlantirish **36**
Kambarov M.K. Tasviriy va amaliy san'at ta'lim yo'nalishlari talabalariga kulolchilikning rivojlanish davrlari to'g'risida tushunchalarini kengaytirish **41**
Maxmudov A.O. Amaliy san'atdagi an'analar va xalq ustalarining pedagogik merosi . . . **45**
Mamajonov U.M. O'zbek an`anaviy ijrochiligi darslarining o'ziga xos jihatlari va talaba yoshlar madaniyatini yuksaltirishdagi o'rni **50**
Xodjayev X.A. Maktab o'quvchilari ma'naviyatini yuksaltirishda "musiqa madaniyati" fanining o'rni **55**
Yuldashev N.K., Dushabayev D.Sh. Yosh gandbolchilarning turli o'yin amplualaridagi jismoniy tayyorgarligini nazorat qilish **59**
Дулатов Р.Р. Физическая культура, спорт и здоровье студенческой молодежи в современных условиях: проблемы и перспективы развития **63**
Alimov Sh.Sh. Zamonaviy oliy ta'limda va inson hayotida jismoniy tarbiyaning tutgan o'rni va ahamiyati **65**
Xamidjonov M.U. Milliy o'yinlarni o'rgatishning pedagogik jihatlari **68**
G'oziyeva O.M. 10-11-sinf ona tili darslarida til va madaniyat masalalarini o'rganish . . **71**
Payg'amov Sh.B. O'zbekiston hududida teatr pedagogikasining rivojlanishi: tarixiy va pedagogik aspektda yondashuv **75**
Majidova M.M. O'zbekistonning xx asr o'rtalaridagi madaniy va musiqiy hayotining o'ziga xosligi **80**
Qo'shmonov A.A. Jismoniy tarbiya va ommaviy sportning rivojlanishiga jamoalarni ommaviy jalb etish **83**
Otashev D.R., Otasheva O.H. Jamoaviy va yakka sport murabbiylarining pedagogik, amaliy va nazariy bilimlarni yetkazib berish salohiyatini oshirish **85**
Mamatqodirov Z.N. Kurash sport turining yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati . . . **89**
O'zganboyev D.D. Kurash sport turi tarixi **93**
Abdullayev F.D. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati **97**
Kuchkorova N.B. Boshlang'ich sinflarda kreativlikni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish **100**
Odilova Z.B. Natyurmort rangtasviri va naturalardagi ranglar ifodasi **103**
Mirzalimov M.S. Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya, sport tadbirlarining maqsadi va vazifalari **106**
Maxmudov A.O., No'monova M.T. O'zbek san'atining buyuk ijodkorlari: milliy va zamonaviy ijod **110**
Ismonov X.B. Chizmachilik fanidan geometrik yasashlar mavzusining boshlang'ich tushunchalari **115**

Yaxshiboyeva G.O. Akademik mobillik sharoitida tibbiy maqsadlarda ingliz tilini o‘qitishning zarurati **119**
Abdullajonova D.R. Talabalarni qo‘l mehnatiga o‘rgatish orqali kasbiy kompetentligini shakllantirishning zamonaviy didaktik yondashuv asosida tahlili **123**
Qoraboyev J.B., Qoraboyeva N.N. Mubolag‘ani ifodalovchi frazeologik birliklarning til tizimida tutgan o‘rni **127**
Ermatov Sh.R. O‘zbek va ingliz tillarida binomiallarning semantik-strukturaviy xususiyatlari **130**
Gadayev H.N. Sozgarlik san’ati va musiqa asboblarining rivojlanish jarayoni **135**
Каримова М.М. Миф о музах **139**
Ashurov M.A. Musiqa darslarida notalashtirish dasturlaridan foydalanish **144**
Ходжаев К.Ю. Роль искусства в объединении тюркских народов: мост культур и веков **150**
Собиров А. Реализация STEAM-образования путем внедрения инновационных форм и методов обучения в педагогических вузах **153**
Usmanova X.A. Sun’iy intellektni pedagogik ta’limga integratsiya qilish metodik ta’minotini takomillashtirish **158**
Abdullajonova D.R., Sirojiddinova X.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mayda qo‘l motorikasini rivojlantirishning pedagogik- psixologik jihatlari **162**
Маликова У.Б. Фольклор как инструмент для развития творческого потенциала . . . **166**
Temirova G.A. Ch.Aytmatov asarlarining o‘quvchilar shaxsiy sifatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati **172**
Jumakulova M.X. Aralash ta’lim jarayonida rag‘batlantirish metodidan foydalanish zaruriyati **175**
Sirojidinova G.X. Iqtidorli talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirishning pedagogik asoslari **180**
Kamoliddinova M.X. Modulli o‘qitish orqali talabalarda pedagogik kompitensiyani shakllantirish **184**
Tolipova M.G. Tarjimada milliylikni aks ettirish zarurati, shartlari va uchrab turadigan qiyinchiliklar **187**
Haydarova G.B. Bolalarda faol tinglash va kirishimlilik qobiliyatlarini rivojlantirish . . . **192**
Karimova M.M. Yangi O‘zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasidagi tendensiyalar **198**

Yuqorida ko‘rilgan barcha tadqiqotlardan ko‘rish mumkinki, akademik mobillik sharoitida tibbiyot sohasida tahsil olayotgan talabalarning ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish, bo‘lajak shifokorlarning ingliz tili o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, ular bilan ishlash jarayonida pedagogning o‘quv jarayonda samarali turli o‘quv materiallar va o‘qitish uslublaridan foydalanish imkoniyatini oshiradi. Akademik mobillik, ayniqsa tibbiyot sohasida, xalqaro miqyosda ish topishga, ilmiy tadqiqotlar olib borishga, bemorlarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishga va global miqyosdagi muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация. - М. : Слово, 2000. - 261 с.
2. Хорнби А.С., Гетенби Э., Уэйкфилд Г. Толковый словарь английского языка. The advanced learner's dictionary of current English. -М. : Сигма-пресс, 1996. - С.1200
3. Фетискин Н.П., Козлов В.В. Социально психологическая диагностика развития личности и малых групп. - М. : Наука. - 2002. - С. 95-98.
4. Фокин Ю.Г. Теория и технология обучения: деятельностный подход: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Ю. Г. Фокин. - 3-е изд. - М. : Издательский центр «Академия», 2008. - С. 240
5. Хекхаузен Х. Социальные мотивы: аффилиация и власть / Х. Хекхаузен // Мотивация и деятельность. - М. : Педагогика, 1986. - Т. 1. - С. 289-337
6. Хуторской А. В. Дидактическая эвристика. Теория и технология креативного обучения / А. В. Хуторской. - М. : Изд-во МГУ, 2003. - С.416
7. Чебышев Н. Высшая школа XXI века: проблема качества / Н. Чебышев, В. Каган // Высшее образование в России. - 2000. - № 1. - С. 19-26.
8. Шадриков В. Д. Психология деятельности и способности человека : учеб. пособие, 2-е изд,, перераб. и доп. / В. Д. Шадриков. - М. : Логос, 1996. - С.320

UO‘K: 30.428

TALABALARNI QO‘L MEHNATIGA O‘RGATISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY DIDAKTIK YONDASHUV ASOSIDA TAHLILI

https://zenodo.org/records/14956009

Abdullajonova Dildora Rustamjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh avlodning aqliy-intellektual salohiyatini yuksaltirish, ta’lim sifatini oshirish, jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash, ta’lim sifatini oshirish bugungi kunda global jarayonlarning ajralmas qismi sifatida ko‘rilgan. Pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo o‘qituvchining bilim, malakasiga, uning didaktik va psixologik qobiliyatlariga bog‘liqligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *didaktiktika, psixologik qobiliyat, yosh avlod, aql-zakovat, global jarayon.*

Аннотация. *В данной статье центральное место в обеспечении устойчивости развития отводится повышению психоинтеллектуального потенциала молодого поколения нашей страны, повышению качества образования, а также подготовке кадров, которые служат интеллектуальному и социальному развитию общества, повышение качества образования рассматривается сегодня как неотъемлемая часть глобальных процессов. Речь идет об успешной реализации педагогического процесса, зависящей, прежде всего, от знаний, квалификации педагога, его дидактических и психологических способностей.*

Ключевые слова: *дидактика, психологические способности, подрастающее поколение, интеллект, глобальный процесс.*

Abstract. *This article discusses the enhancement of the intellectual and intellectual potential of the younger generation, improving the quality of education, training specialists who contribute to the intellectual and social development of society, and enhancing the quality of education, which is now considered an integral part of global processes. The successful implementation of the educational process*

is primarily dependent on the teacher's knowledge, qualifications, and their didactic and psychological abilities.

Key words: *didactics, psychological abilities, the younger generation, intelligence, global process.*

Bugungi kunda ham mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosat, xususan, ta'limdagi ilmiy-amaliy izlanishlar kelajagimiz ertasi boʻlmish yosh avlodni barkamol inson qilib, zamonaviy taʻlim tizimining talablari asosida voyaga yetkazishga qaratilgan. Sharq donishmandlaridan iqtibos olib Prezidentimiz tomonidan keltirilgan: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!" degan hikmat kunimizning shioriga aylanib bormoqda [1].

Yurtimiz ertasi boʻlmish yosh avlodning aqliy-intellektual salohiyatini yuksaltirish bilan birga ularning ma'naviy takomili uchun ham huquqiy asoslar qabul qilingan.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan —Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʻlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga koʻra mamlakatimizning oliy taʻlim sohasiida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini oʻzgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning oʻzi taqozo etmoqda [2]. Bunda yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash, taʻlim va tarbiya berish tizimi islohotlar talablari bilan chambarchas bogʻlangan boʻlishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyat har bir jamiyatda bilimli avlodni shakllantirish va taraqqiyotning barqarorligini ta'minlashda markaziy oʻrin tutadi. Oʻqituvchining professional faoliyati orqali nafaqat bilimlar uzatiladi, balki yosh avlodning axloqiy va madaniy qadriyatlari ham shakllanadi. Shu sababli, oʻqituvchi faoliyatida uchraydigan pedagogik xatolarni oʻrganish va ularni bartaraf etish masalasi nafaqat oʻqituvchi, balki butun ta'lim tizimi uchun muhimdir. Ushbu muammoning tadqiq etilishi va hal qilinishi, avvalo, ta'lim sifatini oshirishga, soʻngra esa jamiyatning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunda global jarayonlarning ajralmas qismi sifatida koʻrilmoqda. Pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalo oʻqituvchining bilim, malakasiga, uning didaktik va psixologik qobiliyatlariga bogʻliqdir.

Birinchidan, agar oʻqituvchi faoliyatida xatoliklarga yoʻl qoʻyilsa, bu nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini pasaytiradi, balki oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasiga ham salbiy ta'sir koʻrsatadi;

Ikkinchidan, XXI asr raqobatbardosh avlodni shakllantirishni talab etmoqda.

Zamonaviy oʻquvchi nafaqat an'anaviy bilimlarga, balki mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarga ega boʻlishi kerak. Oʻqituvchining pedagogik faoliyatidagi xatolar esa oʻquvchilarning bu imkoniyatlarni toʻliq rivojlantirishiga toʻsqinlik qilishi mumkin. Shuningdek, pedagogik xatolar, oʻquvchilarning psixologik holatiga ham ta'sir oʻtkazib, ularning oʻz-oʻziga ishonchini yoʻqotishiga sabab boʻlishi ehtimoldan xoli emas [3].

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yurtimizni har tomonlama rivojlantirishda barchamizning shijoatli mehnatimiz, harakatimizga bogʻliq degan fikrni ilgari suradilar. Biz bugun hayotimizning va istiqbolimizning qaysi yoʻnalishi haqida gapirmaylik, hamma narsa kadrlarga va yana kadrlarga borib taqaladi. Bu masalani ijobiy hal etmasdan turib, amalda oldimizga qoʻygan strategik maqsadlarimizga erishib boʻlmaydi. Qolaversa, barchamiz orzu qilgan yorqin jamiyat barpo etish ham qiyin kechadi. Bu esa, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning oldingi va hozirgi davri bilan oʻzaro solishtirish, tahlil qilish, samarali

usul va muqobil yechimlarni ishlab chiqish orqaligina amalga oshiriladi. Bunda kadrlar tayyorlash sohasida faoliyat olib borayotgan rahbarlardan tortib, kichik xodimigacha oʻz vazifasini sidqidildan bajarish yoʻlida shijoat koʻrsatishni talab etadi [4]. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20- apreldagi PQ-2909 sonli "Oliy ta'lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi qarori talablari asosida ta'lim sifatini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan islohotlar talablariga muvofiq yuksak darajaga koʻtarish, shuningdek uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim sifatini nazorat qilishni yanada takomillashtirish, kadrlar tayyorlash sifati va oʻquv jarayoni samaradorligining xolisona baholanishini nazorat qilish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida yetuk kadrlar tayyorlash har doim ham doimo harakatda boʻlgan dinamik jarayon boʻlib, u uch jihatni oʻz ichiga oladi [5]. Toʻliqroq aytganda, u oʻzida bilish, baholash, xulq-atvor nuqtai-nazarlarini birlashtiradi. Ushbu tomonlarning oʻzi ham oʻz navbatida bir necha bosqichlardan iborat. Chunonchi, yetuk mutaxassis kadrlar bilish bosqichi oʻzida bilimlar, islohotlardan xabardorlik, onglilik kabi sifatlarni mujassamlashtirsa, baholash bosqichi mulohazalar, qadriyatlar, normalardan tashkil topadi. Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda kadrlar tizimini shakllantirish va ularni qayta tayyorlash mexanizmi izchilligi davriy koʻnikmalar asosida davom ettirilishi lozim. Biz yapon moʻjizasi, koreys tabiati kabi iqtisodiy oʻsish namunalarini oʻrganar ekanmiz, avvalo ularda millat tafakkurini tubdan taraqqiy ettirishga asosiy urgʻu berilganiga guvoh boʻlamiz. Yurtimizda belgilangan muammolarni bartaraf etish boʻyicha strategik yechimlar bosqichma-bosqich ishlab chiqarishga joriy etilishi boshlab yuborildi. Asosiysi, milliy tafakkur va qarashlarimizni ham oʻzgartirish, qolaversa, oʻsib kelayotgan avlod ongida "shu vatan, shu yurt ravnaqi uchun barchamiz mas'ul" degan gʻoya ostida birlashish, jipslashishni davrning oʻzi taqazo etib turibdi . Xulq-atvor bosqichi yetuk kadrlar tayyorlashda ijtimoiylik dasturlarda asosan amalga oshiriladigan faollik, vatanparvarlik, millatparvarlik, baynalmilalchilik, millatlararo munosabatlar kabi xususiyatlarni oʻzida mujassam qiladi.

Bu esa zamonaviy ta'lim tizimining talablari asosida boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy kompetentligini didaktik yondashuv asosida nazariy xususiyatlari tahlil qilishni talab qiladi. Kasbiy kompetentlik, insonning kasbiy faoliyatlarida mutaxassisligi, sohasida mutaxassisligi va samaradorligi ta'minlaydigan tushunchadir.Ta'lim muassasasida amaliyot oʻtash kelajakdagi oʻqituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga ta'sir qiladi, boʻlajak oʻqituvchilarning nazariy tayyorgarligini ularning amaliy faoliyati bilan birlashtirishga yordam beradi. Boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy malakasini shakllantirish oliy ta'limda oʻqish jarayonida birinchi kurslardan boshlanadi.Boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi chuqur va murakkab xarakterga ega, unda boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir koʻrsatadigan individual psixologik va fiziologik xususiyatlarni hisobga olish kerak boʻladi. Ijtimoiy, iqtisodiy sohalarga ta'sir koʻrsatgan jamiyatdagi zamonaviy oʻzgarishlar zamonaviy ta'limining barcha bosqichlari maqsadlari, vazifalari va funksiyalarining keng koʻlamli oʻzgarishiga olib keldi. Pedagogik faoliyatga ta'sir koʻrsatadigan jadal rivojlanayotgan innovatsion jarayonlar an'anaviy ta'lim tizimini qayta koʻrib chiqishga olib keldi. Ta'lim jarayonini samarali qurish, axborot sohasida harakat qilish va oʻz-oʻzini takomillashtirish qobiliyati bilan bogʻliq boʻlgan kasbiy kompetensiyasi bilan ajralib turadigan hamda bu kompetentligini didaktik yondashuv asosida tahlil qilinishi ta'lim sifatini yanada takomillashishiga olib keladi va oʻz-oʻzidan bunday yangi pedagogik kadrlarga ehtiyoj ortdi [6].

Kasbiy kompetentsiya muammosi butun jamiyatning funksional imkoniyatlariga ta'sir qiladi, chunki o'qituvchilarni tayyorlashning yangi tizimi global o'zgarishlar jarayonida amalga oshiriladi. Bo'lajak o'qituvchilar tizimli-aqliy faoliyat ko'nikmalarini egallashi lozim, shunda boshqa odamlarning fikrlash strategiyalarini o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladi, didaktik vositalar va noananaviy, interaktiv o'qitishning uslubiy usullari pedagogik tajriba namunalarini bilishi, texnik va texnologik vositalar va xususiyatlar bilan yetarli darajada bog'liq bo'lishi kerak. Kasbiy mahorati va kompetentlikning maqsadi, vazifasi, oliy ta'lim muassasasi pedagogi mahorati, zamon talabidagi o'qituvchi imiji, pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv, oliy ta'lim muassasasida dars mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari, o'qituvchining innovatsion faoliyati, rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim tizimini o'ziga xosliklarini o'z ichiga qamrab olgan bo'lishi kerak. Yangi O'zbekiston mutaxassisni nafaqat professional sohada bilim, ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxs, balki murakkab, nostandart vaziyatlarda samarali harakat qila oladigan, improvizatsion, mustaqil ravishda qaror qabul qiladigan, ijodiy yondoshib, o'zini takomillashtiradigan, boshqalarga nisbatan bag'rikenglik munosabatini tan oladigan, odamlar bilan muloqot qila oladigan shaxs sifatida ko'radi. Ushbu va boshqa kasbiy muhim xususiyatlar va shaxsiy fazilatlar mutaxassisning kasbiy kompetensiyani belgilaydi. Ta'lim va tarbiyaning mazmuni, maqsadining o'zgarishi didaktika prinsiplari, uslublari va tashkiliy shakllarining ham o'zgarishiga, rivojlanishiga sabab bo'ladi.Barcha fanlarni o'rganishda didaktik prinsiplar muhim o'rin tutadi. Didaktik prinsiplar dars mazmuni va darsni tashkil etishga tegishlidir. Didaktika (qadimgi yunoncha: διδακτικός, didaktikos — „o'rgatuvchi", „ta'lim beruvchi") — pedagogikaning tarmog'i. Ta'lim nazariyasi bilan shug'ullanadi. „Didaktika" atamasi ilk bor Yevropada 17-asrda o'qitish va ta'lim jarayoni haqida asarlar yaratgan olimlar tomonidan qo'llanila boshlagan. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy o'zining „Buyuk didaktika" asarida (1657) bolalar va o'smirlarni ma'lumotli qilish va ularga ta'lim berishning didaktik jihatlarini ishlab chiqdi. Nemis pedagogi Adolph Diesterweg o'zining „Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun yo'riqnoma" (1834—35) asarida didaktikaning pedagogikada ta'lim nazariyasini bayon etuvchi alohida qism ekanligini ta'kidlagan. Shundan keyin didaktikaga ta'lim nazariyasi haqidagi fan sifatida qarash keng yoyildi. 19-yuzyillikning so'ngi va 20-yuzyillikning boshlarida didaktikaga oid maxsus monografiyalar yaratila boshlandi [7]. Hozirgi zamon pedagogikasida didaktikaga ta'lim va ma'rifat berish nazariyasi bilan shug'ullanadigan alohida soha sifatida qaraladi. Ta'lim mazmunini aniqlash, ta'lim jarayoni qonuniyatlarini ochish hamda o'qitishning eng samarador usul va yo'llarini topish didaktikaning asosiy muammolaridir. Kasbiy malakaga ega bo'lgan mutaxassislar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga muvaffaqiyatli moslasha oladilar va, qoida tariqasida, ularning hayotiy faoliyatini bashorat qiladilar. Ammo jamiyatni boshqarish muammolari universal modellarga ega emas va noaniq tarzda hal qilinadi, jamiyat hayotidagi har bir burilish kelajakdagi mutaxassislarning didaktik tafakkurini modernizatsiya qilish va faollashtirishga olib keladi.

Biz "didaktik kompetentlik" tushunchasining mohiyatini nazariy bilimlarni ijodiy qo'llash orqali muammolarni oqilona hal qilish uchun ma'lumotni tanlash va tahlil qilishning maqsadli jarayoni sifatida belgilaymiz. Oliy ta'lim talabalarini umumiy kompetensiya modeli bilimlar, ko'nikmalar, shaxsiy xususiyatlar to'plamini tavsiflaydi. Amalga oshirish uchun kerak bo'lgan qobiliyat va amaliy tajriba muayyan professional funksiyalar, insonda shakllanadigan ta'lim dasturini o'zlashtirish jarayoni nafaqat o'zi bilan bog'liq o'quv natijalarining, ammo bilimlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan, muayyan shaxs tomonidan tushunish va

ko‘nikmalarini namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari biz ta'kidlagan kasbiy pedagogik kompetentsiyalar klasterlari (ilmiy va nazariy; konstruktiv loyihalash; tashkiliy va uslubiy; kasbiy va shaxsiy) shuningdek, ular olingan bilim, ko‘nikmalarning nazariy va amaliy yadrosi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, barcha bilimlar, amaliy faoliyat ko‘nikmalari va tajribasi, ularni amalga oshirishning shaxsiy usullari singari, ular aniq ijtimoiy shakllarda shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan — O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
3. Conference on Social Sciences and Humanities Research. Z.E.Azimova, M.B. Artikova, V.A. Qodirov, Sh.A.Xasanov M.A.Tojiboyeva. Yanvar 2024.24-B
4. O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot trategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidan. 28.01.2022.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20- apreldagi PQ-2909 sonli “Oliy ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
6. Abdullajonova D.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning ilmiy-metodik jihatlari. P.f.b.f.d (PhD). ... diss. avtoref. - N.: 2023. 27-b.
7. Лозинская А.М. “Вопросы формирования профессиональных компетенций будущих педагогов: дифференционно-интеграционная концепция методологии дидактической инженерии”.К.п.н доцент, 620075, г. Екатеринбург, ул. Карла Либкнехта, 9; e-mail: anna-loz@yandex.ru.

UO‘K: 2567

MUBOLAG‘ANI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TIL TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

https://zenodo.org/records/14956013

Qoraboyev Jasurbek Bohodirovich
Andijon davlat pyedagogika instituti
Qoraboyeva Nargiza Ne’matjanovna
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya. *Maqola tilshunoslikda frazeologik birlikning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birlikning o‘rni hamda axborot yetkazishdagi roli va ularning stilistik xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *frazeologik birlik, ekvivalentlik, ekspressiv, kognitiv, emosema.*

Аннотация. *Статья посвящена анализу уникальных особенностей фразеологизма в лингвистике, выделены место и роль фразеологизма в английском и узбекском языках, их роль в передаче информации и их стилистические особенности.*

Ключевые слова: *фразеологизм, эквивалентность, экспрессивная, когнитивная, эмосема.*

Abstract. *The article is devoted to the analysis of the unique features of the phraseological unit in linguistics, the place and role of the phraseological unit in English and Uzbek languages and their role in conveying information and their stylistic features are highlighted.*

Key words: *phraseological unit, equivalence, expressive, cognitive, emoseme.*